

O'ZBEKISTONDAGI ERONIYLARINING DAFN MAROSIMLARI

Botirov Sarvar Bahrom o'g'li

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

+99899 056 95 03

sarvarbotirov1771@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19627765>

Ko'p sonli bo'lmagan diasporalar va etnik guruhlar muammosi butun dunyoda mavjud bo'lgan hozirgi davrda millatlararo totuvlik bilan ajralib turadi. Jumladan O'zbekistonda millati, diniy e'tiqodi, tilidan qat'i nazar, barcha fuqarolarning yakdilligini ta'minlash siyosati yurgizilib, bizning mamlakatimizda ko'p sonli bo'lmagan xalqlar yoki etnik guruhlar muammosi amaliy jihatdan muvaffaqiyatli hal etilmoqda.

Jamiyatda bag'rikenglik, o'zaro ishonch va millatlararo hamjihatlikning poydevori, mamlakat xalqlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni uyg'unlashtirishning harakatlantiruvchi kuchidir. Millat va elatlarning o'zaro hurmati – mamlakatning kelgusida muvaffaqiyatli rivojlanishining eng muhim shartidir. Shu jihatlarni hisobga olgan holda yurtimizdagi turli millatlarning urf-odat va marosimlarini o'rganish ahamiyatli hisoblanadi.

O'lim va u bilan bog'liq urf-odatlar majmuida inson vafoti va marhumning jasadini tartibga keltirish bilan bog'liq rasm-rusumlar katta ahamiyat kasb etadi. Inson vafoti bilan darhol bajariladigan ishlar anchagina bo'lib, ular dafn marosimlarida alohida xususiyatlari bilan ajralib turadi. Birinchi xususiyati shuki, bu ishlar kechiktirilmay, tez bajarilishi kerak, chunki mayyitning a'zolari qotib qolishi mumkin. Ikkinchi xususiyati shuki, mayyitni mahtal qilmasdan, dafnga tayyorlash ko'zda tutiladi, bunda jon badandan uzilgandan so'ng tezda murdaning iyagi bog'lanadi, ko'zi yumiladi, oyog'i uzatiladi va boshmoldoqlari bir-biriga tekkizilib, bog'lab qo'yiladi.¹

Samarqand eroniylarining dafn marosimlarida o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Ularning dafn marosimlarini amalga oshiradigan maxsus g'assol* va go'rkovlar ishtirok alohida ahamiyatga egadir. Inson vafot etgandan keyin dastlabki yumushlarni g'assol bajaradi. Mahalliy eroniy aholisi g'assolni poksho'y, murdasho'y deyishadi. Bu so'z forschadan olingan bo'lib, "pok" – toza, "sho'y" – yuvuvchi ("shustan" – yuvmoq fe'lidan olingan) degan ma'noni bildiradi. Bundan tashqari uning bir yordamchisi ham bo'lib, u asosan obandoz (suv quyuvchi) deyilgan. G'assollik ustoz-shogird sifatida biridan ikkinchisiga o'tib turgan. Shogird bir necha yil davomida ustozini yonida suv quyuvchi bo'lib, bu kasbning sir-asrorlarini o'rganadi.² Yaniy Samarqandning ayrim eroniylar maxsus g'assollar mavjud.

G'assol marhumni oldiga salom berib kiradi. Kiyimlari sekin-asta yechib olingach, bir tarafi baland va bir tarafi past qilingan taxta ustiga yotqiziladi. Vafot etgan kishini yelkalaridan oyog'ining uchigacha uzun oq mato bilan yopilgan holatda, matoning ustidan suv quyilib turib yuviladi. Samarqand eroniylarida mayyitni yuvish uchun to'qqiz chelak ba'zida esa undan ham ortiq suv ishlatilishini e'tirof etishdi. Suv, avvalo, qozonda isitilgan. G'assol qo'llarini uch marotaba yuvib, avval marhumning ko'krigidan bosib qornigacha surib boradi (najosat chiqib

¹ Nasриддинов Қ.Н. XIX аср охири – XX асрнинг 80 йилларида ўзбекларнинг аънавий дафн маросимлари (Қашқадарё вилояти маълумотлари асосида). Қўлёзма. Тошкент-1995. Б.40-41.

*G'assol – o'lik yuvuvchi

² Dala tadqiqotlari. Samarqand viloyati Samarqand shahar Panjob MFY, 2025-yil

ketishi uchun) va mato ustidan suv quyib turib jinsiy a'zolari yuviladi. G'assol maxsus qo'lqopda oq paxta bilan suv orqali mayyitning badani yaxshilab yuvintirgan. Yuvish harakati uch kosadan suv bilan marhumning avval o'ng yelkasidan boshlanadi va so'ng chap yelkasiga o'tiladi. Har bir a'zoni yuvishda alohida paxta ishlatiladi. Og'iz-burunga suv yuborilmaydi, chunki chiqishi qiyin hisoblandi. So'ng bosh, quloq, bo'yin, oyoqlar (to'pig'igacha) tahorat olish tartibidek yuviladi. Chap tomonga yonboshlatib o'ng tarafi, o'ng tomonga yonbosh qilinib, chap tarafi 3 martadan yuviladi. Yelkalari bir oz ko'tarilib, tanaga suv quyiladi. Shu tarzda tananing barcha a'zolari yana bir bor umumiy tarzda yuviladi. Uch marta g'usl beriladi. Mayit yuvilgan paytga shu mayitning badanidan oppoq suv chiqqancha yuviladi, badani top-toza bo'lishi, kir qolmasligi kerak ekanni ta'kidlashdi.³

Erkak va ayollarda kafanlash farq qiladi. Kafanlash uchun 30 metr oq surf (mato) ishlatiladi. Kafanlik bir necha qismdan iborat bo'ladi. Erkaklar uchun lifofa (mayyit o'raladigan mato), izor (ishton) va qamis (ko'ylak). Lifofa murdaning boshi va oyog'idan bir qarich uzun bo'ladi. Izor (ishton) boshdan oyog'igacha o'rab turadi. Ko'ylak ikki qavat hamda yelkasidan oyoq betigacha bo'ladi. Ko'ylakning o'rtasi boshni kirgizish uchun ochiq bo'ladi. Kafanning eni mayyitning jasadiga qarab o'lchanadi. Mayyit kafanlangan vaqtda mayyit yuzi ochiq bo'lishi uchun quloqning orqasidan bog'langan.

Avval lifofa (u boshdan oyoqqacha o'rashga yetarli bo'lishi kerak) to'shaladi, ustidan izor yoziladi. So'ngra mayyitga qamis kiydirilib, izor ustiga yotqiziladi. Izorga chap tarafdin o'raladi. So'ngra o'ng tarafdin ham o'raladi. Undan so'ng lifofada ham shunday yo'l tutiladi. Kafanlash jarayonida mayyitning boshi, soqoli va qolgan badaniga mushk-anbar surtiladi. Kafan yoyilib ketmasligi uchun bog'ich bilan boshining tepa qismi, bel qismi va oyog'ining pastidan bog'lab qo'yiladi.⁴

Ayol kishini kafanlashda beshta kiyim (dir, ximor, izor, lifofa, xirqa) bo'ladi. Dir-siyaband bo'lib, ayol kishining ko'krak qismi o'raladigan mato, ximor -ro'mol, xirqa esa ayolning ko'kragi va qorni ustidan bog'lanadigan mato hisoblanadi. Avval lifofa, izor (erkaklarnikidek), keyin xirqa yoziladi, xirqa ayolning ko'krak qismidan oyog'igacha yetadigan bo'lishi kerak ekanligini e'tirof etadi. Bu xirqa mayyit ko'tarib olib borilayotganda sonlari yoyilib ketmasligi uchun kerak. Ayollarni kafanga o'rash quyidagi tartibda bajariladi. Mayyitni o'rashda avval ko'ylak kiygiziladi. Sochini ikki taqsimlab, ko'krak ustiga qo'yiladi, boshini ro'mol bilan o'ralib, ro'molning ikki uchi soch ustiga tashlab qo'yiladi. Keyin izor, ya'ni ishtonning chap tarafi, so'ngra o'ng tarafi alohida-alohida o'raladi. Ustidan lifofa, siyaband o'raladi, oxirida kafanning bosh va oyoq qismlarining uchlari, so'ng bel qismidan ham belbog' bog'lanadi.

Kafan bichish tayyor bo'lgandan keyin "Qadr surasi" o'qiladi. Keyin mayyitni xalqni orasidan olib chiqib, keyin olib borib bir soat davomida yuvilgan. G'assol o'z xizmati uchun alohida narx-navo belgilamagan. Mayyitning yaqinlari iqtisodiy sharoitiga qarab turli xil sarpo va buyumlar bergan.⁵

Qabr kovlash taxminan 6-8 soatgacha davom etadi sababi, yerni qattiq yoki yumshoq ekanligi bilan bog'liq ekanligini aytishdi. Dastlab qabrning ayvon qismi kovlanadi. Ayvonning

³ Dala tadqiqotlari. Samarqand viloyati Tayloq tumani Xonchorbog' MFY, 2025-yil

⁴ Dala tadqiqotlari. Samarqand viloyati Samarqand tumani Pulmug'ob MFY, 2025-yil

⁵ Dala tadqiqotlari. Samarqand viloyati Tayloq tumani Xonchorbog' MFY, 2025-yil

chuqurligi 130 sm qilib kovlanadi. Keyin esa asosiy ichki xona kovlangan. Ichki xonaning og'zi 70 sm kenglikda ochiladi. Xonaning ichi eniga 90 sm, bo'yiga 200 sm, chuqurligi 100 sm qilib kovlanadi. Xalq tili bilan aytganda qabrning ichki xonasida chordona qurib o'tirgan holda boshingiz tepasiga tegmasligi kerak.⁶ Mayyit qabrga oyoq tomonidan kiritilib, o'ng tomoni qibla tarafda turgan. Tuproqdan yostiq yasalib mayyitning yuzi qibla tarafga burib qo'yilgan.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, eroniylarning dafn marosim bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlar hamda atrofdagi o'zbek va boshqa xalqlarning urf-odatlarini bilan qiyosiy ma'lumotlar tahlil etildi.



⁶ Dala tadqiqotlari. Samarqand viloyati Tayloq tumani Xonchorbog' MFY, 2025-yil